

6. Адизова Н. Бухоро тумани микротопонимларининг лексик-семантик тадқики: филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Бухоро, 2021. – 48 б.
7. Кобулова Н. Erkin A'zam nasrida xarakter va maishiy hayot tasviri. T.: Общество и инновации, 2021. 2-4/S, 475-480
8. Менглиев Б.Р. Лисоний тизим яхлитлигига сатҳлараро муносабатлар: Филол. фанлари д-ри дисс. автореф. – Тошкент, 2002. – 47 б.
9. The morphological analysis and synthesis of word forms in the linguistic analyzer
- 10.B Mengliyev, S Shahabitdinova, S Khamroeva, S Gulyamova, A Botirova
- 11.Journal of Language and Linguistic Studies 17 (1), 558-564
- 12.Logical and Grammatical Relations in Word Categories: The Factor of Difference and Incarnation
13. L Raupova, A Botirova, N Musulmanova, H Kadyrova, G Safarova International Journal of Psychosocial Rehabilitation 24 (04)
14. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING TALAFFUZ KO'NIKMALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH BA Erkinovna// INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION 2 (16), 1-3
- 15.ГРАММАТИК ЛУФАТЛАРИНИНГ ЭЛЕКТРОН ШАКЛИГА СЎЗЛАРНИ ТУРКУМЛАР БЎЙИЧА ТАНЛАБ ОЛИШ ТАМОЙИЛИ: Ботирова Адиба Эркиновна, Навоий давлат педагогика институти доценти
- 16.АЭ Ботирова Образование и инновационные исследования международный научно-методический
- 17.THE PRINCIPLE OF SELECTING WORDS BY CATEGORY IN THE ELECTRONIC FORM OF MATHEMATICAL DICTIONARIES A Botirova
- 18.ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 12 (12), 1-11
- 19.Grammatik o'quv lug'atlari tuzish va ulardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar A Botirova Til, ta'lif, tarjima 3 (5), 59-66

“HAQIQAT” MOTIVINING FOLKLORIZMDA AKS ETISHI (SAID AHMADNING “JIMJITLIK” ASARI MISOLIDA)

**Tosheva Nilufar Shirinboyevna
O'zbekiston, Navoiy innovatsiyalar universiteti v.b. dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalq og'zaki ijodida juda ko'rinda keladigan haqiqat motivining yozma nasrda ijodkor tomonidan folklorizmga aylantirib aks ettirishi haqida so'z boradi. “Jimjitlik” romanidagi ikki obraz misolida bu tushuncha tadqiq etildi.

Kalit so`zlar: haqiqat, vijdon, folklor,qahramon, obraz,detal

ОТРАЖЕНИЕ МОТИВА «HAQIQAT» В ФОЛЬКЛОРИЗМЕ

Аннотация: В данной статье говорится о репрезентации мотива истины, очень распространенного в фольклоре, в письменной прозе творца, превращая его в фольклоризм. Данное понятие изучалось на примере двух героев романа «Молчание».

Ключевые слова: правда, совесть, фольклор, герой, образ, деталь.

THE REFLECTION OF THE MOTIVE “HAQIQAT” IN FOLKLORISM

Abstract: This article talks about the representation of the motif of truth, which is very common in folklore, in written prose by the creator, turning it into folklorism. This concept was studied on the example of two characters in the novel “Silence”

Key words: truth, conscience,folklore, hero, image,detail

Jahon adabiyotshunosligida adabiy jarayon bilan bog‘liq badiiy asar tarkibida keladigan folklorga oid vositalarni o‘rganish va uni anglash zarurati filologiya sohasida ham jiddiy masalalarni kun tartibiga qo‘yyapti. Hozirgi adabiy jarayonda gumanitar sohalarda shakl va mazmuni mukammal, sifat jihatidan yangi ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun imkoniyatlar yaratildi. Bundan unumli foydalananayotgan adabiyotshunoslik fani ham o‘z obyektiga yangicha nigoh bilan qarash, folklor bilan bog‘liq adabiy muammolarni chuqurroq anglash yo‘lidan bormoqda. Nasrda xalq og‘zaki ijodiga xos xususiyatlar badiiy asarning g‘oyaviy mazmunini ifoda etishda juda muhim sanaladi. Tabiiyki, bu hol adiblarning iste’dodi, badiiy mahorati, tafakkur tarziga ham daxldor. Ijtimoiy muhit doimo adabiy-ma’naviy, madaniy hayot bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Darhaqiqat, bugungi davr kishilari ong-u tafakkuri, dunyoqarashi va ruhiyatidagi o‘zgarishlar, eng avvalo, adabiyot va san’atda o‘z aksini topadi.

Dunyo nasrida folklorga oid vositalarning poetik funksiyasi muammosiga o‘ziga xos adabiy-estetik hodisa sifatida yondashish, ijodkor badiiy mahoratini ochish, yozuvchi asarlarining adabiy mazmunini teran anglash kabi dolzarb ilmiy masala kun tartibiga chiqmoqda. Bunda eng muhim vazifa muayyan xalq ijodida, tasvir va ifodaning yangicha talqini bilan bog‘liq. Adabiy jarayonda yangi davr adabiyotshunosligida muhim muammo hisoblangan zamonaviy nasr tarkibida keladigan folklorga oid vositalarning poetik funksiyasini maxsus o‘rganish asosiy vazifa etib qo‘yildi.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmadning “Jimjitlik” romanida folklorizmning juda ko‘p ko’rinishlari uchraydi. Ijodkor bu asarida yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi ayovsiz ko‘rash haqida yozib, bu ikki qarama-qarshi tushunchalarni asoslash maqsadida adib tomonidan milliy qadriyatlar bilan birga rivoyatlardan ham foydalananiladi. Romanning bosh qahramoni Tolibjon orqali haqiqatning naqadar buyuk bir kuchga egaligi uning insonlarga suv bilan havoday kerak bo‘ladigan muhim qadriyat ekanligi ochib berilgan.

Tolibjon ahillik va haqiqatni yaxshi ko'rardi. Uning xarakterini real qilib kitobxonga ko'rsatish maqsadida "Kiyiksovdi" afsonasini keltirib o'tadi. Afsonaning bosh qahramoni tabib kampir odamlarning noahilligidan bezor bo'lib tog'-u toshga chiqib ketadi. Tolibjon ham atrofidagi odamlarning nohaqligidan bezor bo'lib bolalaigi o'tgan qishlog'igan keladi. Tolibjon Toshkent shahar partiya komitetida bo'lim boshlig'i edi. Uning bir so'zligi, o'jarligi birovga yoqib birovga yoqmasdi. Tolibjonning bu xarakteri uning hayoti qiyinlashishining sababi bo'ldi.

"Oblast partiya konferensiyasida so'z olib, hozirgi rahbarimiz ministr Luqmonovning yolg'on-yashiq gaplariga ishonib, yaxshi-yaxshi odamlarni badnom qilayotganini, respublikamizda yangi bir shaxs paydo bo'lganini aytdi. O'shanda qiziq bir voqe yuz berdi. Zal bo'ylab guldurros qarsaklar yangradi. Qarsaklarni kim chalayotganini bilib bo'lmasdi. Odamlar stul tagiga qo'llarini tiqib qarsaklar yangradi. Ko'zlaridan, yuzlaridan qarsak chalayotganlarini bilib bo'lmasdi".[1;13-b.]

Xalq orasida haqiqat achchiq bo'lgani uchun ham ko'pchilikka yoqmaydi. Haqiqatni o'ziga quroq qilib olganlarning dushmani ko'p bo'ladi. Tarixdan ham ma'lumki, haqiqatni so'zlagani uchun Fitrat, Cho'lpon, Usmon Nosir, Abdulla Qodiriylar qatag'on qurboni bo'ldilar. "Alpomish" dostonida Hakimbek zakot haqidagi haqiqatni aytgani uchun Boybo'ri va Boysari yuzko'rmas bo'ldilar.[2;8-b.]

Xalq og'zaki ijodidagi bunday insoniy xususiyat bashariyat orasida qadimdan mavjud tushunchadir. Tolibjon ham xuddi shunday insoniy sifatlarga ega insonligi uchun uni ko'rolmaydigan kishilari atrofida talaygina edi. Haqiqatni har yerda qo'rmasdan so'zlash har kimning ham qo'lidan kelavermaydi. Asar qahramoni boshlig'I haqidagi bor haqiqatni aytganida ham odamlar uning haqligini bilib tursalar-da, uni qo'llab -quvvatlashdan qo'rqishdi. Stol ostidan uning gaplariga qarsaklar chalishdi. Tolibjon Mirvalini kirdikorlaridan xabardor bo'lib uni to'g'ri yo'lga solish uchun bir necha marta harakat qildi, ammo uni to'g'ri tizginga boshlay olmadi. Mirvali Tolibjonning teskarisi edi. Hayotda har narsaning qaramaqarshisi bilan yaratganidek bu ikki inson bir-biriga teskari qilib yaratilgandek go'yo. Tolibjon ish bilan Qohiraga ketayotganida mashhur adib Abdulla Qahhor bilan uchrashib suhbatlashib qolishadi. "Tolibjon tug'ilgan joyni aytganda, adibning ko'zları yashnab ketgandi.

—Ajoyib joyning farzandi ekansiz, — degandi u. — Ulug'bek, Jomiy, Navoiy qadami tekkan yerlarda o'sgan ekansiz. Samarqanddan Taxti Qoracha dovonи orqali Amir Temur Shahrisabzga o'tgan. Ulug'bek xazinasini Taxti Qoracha dovoniga yashirgan. Navoiy Samarqand tahsilini tugatgach, shu dovondan oshib Hirotga qaytgan. Bobur shu dovondan Kobulga ketgan. Lekin bu joylarning odamlari antiqa bo'ladi. Direktorlaringizni taniyman. Uning asli qiyofasini chizish qiyin. Bir tanda ikki odam yashayotganga o'xshaydi. Biri —ishbilarmon, biri — yovuz. Ikkisi ham avj pardada".[1;190-b.]

Ijodkor xalqi insonlarning ichki olamini boshqa soha vakillariga qaraganda juda tez anglab yetadi. Abdulla Qahhor ham Mirvalini ko'rib uning yomon ishlaridan xabari bo'lmasa-da, uning ba'zi xatti-harakatidan bu inson shunday

ishlarni qilishga qodir degan xulosaga boradi. Mirvali Tolibjonning teskarisi edi. U hech narsa va hech kimdan qo’rmasdi. Uni qishloqda hamma yaxshi bilardi. Mirvali qishloqda kishilarning erkinliklarini ham o’ziniki qilib olgan edi. Ayniqsa, bu jarayonni Eralining otini tortib olib uni uch kun non tuzsiz qoldirishi, natijada Erali cholning jinni bo’lib qolishi Mirvalining faqat o’zini o’ylash xarakteri borligini ko’rsatib bersa, Bodomgul va Sedonani yo’ldan urushi esa uning nihoyatda hayvoniy xirsga ega inson ekanligini ochib beradi. Mirvali kishilarning ko’z yoshlari, mehnati evaziga baxtga erishishga o’rganib qolgan biro dam edi. Tolibjon halol inson edi. U oilasini yaxshi ko’rardi. Ayoli, Sanobar opani ham juda hurmat qilardi, qaysi mamlakatga borsa, uni va o’g’lini birga olib borardi. Mirvali oilasiga faqat xiyonat qilib yuradigan hatto odamlarni bemalol kunlik ishidek o’ldirib yuboradigan berahim shaxs sifatida aks ettiriladi. Mirvali Asqaralini mashinasi bilan bosib o’ldiradi. U o’zining kirdikorlarini oshkor bo’lishidan qo’rqib bir gunohsiz insonni o’ldirishgacha boradi.

“Mirvali mashinani darrov orqaga qaytarmadi, to labidan qon oqquncha, ko’zi oqib tushguncha qisib turaverdi”.[1;258-b.] Bu yovuzlikni u hech narsadan tab tortmay, hech ikkilanmay, o’ylanmay bajardi.

“U magnitofon tugmasini bosdi. “O’xshaydi-ku” qo’shig’i yangrab ketdi. Mirvali kayf bilan boshini goh u yoqqa, goh bu yoqqa tashlab, qo’shiqdan sel bo’lib borardi. Ikki kishining hayoti bandidan qirqilgan shunday paytda ko’ngli qo’shiq istagani uning uchun g’ayritabiyy bir hol emasdi. Buxoro amirining jallodi ham zindondan odam so’yib chiqqandan keyin chekkasiga gul taqib yurar ekan”.[1;258-b.]

Qancha vaqt, qancha davrlar o’tsa-da, haqiqat qaror topadi yoki uni himoya qiladigan insonlar bo’ladi. Tolibjon va Jayrona haqiqatni ro’yobga chiqarish uchun harakat qilishdi. Jayrona Mirvalining kirdikorlaridan xabardor bo’lib uning ortida kimlar turganligini ham surishtirib biladi. U juda aqlli va uzoqni ko’ra biladigan ayol edi. Tolibjonga ham uning xotini va o’g’li o’lganidan keyin juda katta yordam beradi. Jayrona uni halol va haqiqatparast inson ekanligi uchun ham sevib qoldi. Ammo ularning baxti uzoqqa bormadi Mirvalining beboshligi Tolibjonning o’limiga sabab bo’ldi. Jayronaning o’limi uchun atalgan o’q Tolibjonga tegadi va u o’ladi. Ertak, afsona, miflarda har doim yomonlik ustidan yaxshilik g’alaba qozonadi. Dostonlarda ham haqsizlik ustidan haqiqat qaror topadi. Davlat sultonni bo’lib adolatli shoh taxtga o’tiradi. Ushbu asarda ham Mirvalining qilmishlari fosh bo’lib haqiqat qaror topdi.

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash joizki, haqiqat egilishi, bukulishi mumkin, ammo uni hech kim sindira olmaydi. Xalqimizning, millatimizning shuuriga singib ketgan qadriyatlar shu zaylda avloddan avlodga meros bo’lib qolaveradi. Zero, insoniyat yaralibdiki, qarama-qarshiliklar dunyoni egallagan, kishi dunyoning oq tarafiga faqat ongi va tafakkuri bilan erishishi mumkin.

Foydalanimgan adabiyotlar.

1. Said Ahmad. Jimjitlik. –T.: Sano-standart nashriyoti.,2021.
2. Mirzayev T.”Alpomish” dostonining o’zbek variantlari. – Toshkent:Fan, 1968.

3. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006.
4. Кобулова Н. Erkin A'zam nasrida xarakter va maishiy hayot tasviri. Т.: Общество и инновации, 2021. 2-4/S, 475-480
1. 5.Tosheva Nilufar. Hozirgi o'zbek nasrida folklorga oid vositalarning poetik funksiyasi. –Toshkent: Bookmany print nashriyoti, 2024. 26-38-b.
2. 6.Rasulova, U. (2024). Poetic Research in Modern Story-Writing. *SPAST Reports, 1(1)*.
3. L Raupova, A Botirova, N Musulmanova, H Kadyrova, G Safarova International Journal of Psychosocial Rehabilitation 24 (04)
4. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING TALAFFUZ KO'NIKMALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH BA Erkinovna// INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION 2 (16), 1-3
5. ГРАММАТИК ЛУГАТЛАРИНИНГ ЭЛЕКТРОН ШАКЛИГА СЎЗЛАРНИ ТУРКУМЛАР БЎЙИЧА ТАНЛАБ ОЛИШ ТАМОЙИЛИ: Ботирова Адиба Эркиновна, Навоий давлат педагогика институти доценти
6. АЭ Ботирова Образование и инновационные исследования международный научно-методический
7. THE PRINCIPLE OF SELECTING WORDS BY CATEGORY IN THE ELECTRONIC FORM OF MATHEMATICAL DICTIONARIES A Botirova
8. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 12 (12), 1-11
9. Grammatik o'quv lug'atlari tuzish va ulardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar A Botirova Til, ta'lif, tarjima 3 (5), 59-66

NAVOIYNI ANGLASH SAODATI

Tozagul Dusanova

O'zbekiston, Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti v.b., PhD

Annotatsiya: ushbu maqolada Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asaridagi nasriy va she'riy matnlarda ilgari surilgan komil inson axloqi, uning tarbiyasiga oid muhim fikrlar haqidagi mulohazalar berilgan.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, "Mahbub ul-qulub", nasr va nazm, **komil inson**, fasl, bob, tanbeh.

БЛАЖЕНСТВО ПОНИМАНИЯ НАВОИ

Аннотация: В этой статье представлены размышления о нравственности совершенного человека, важные моменты его воспитания,